

SIRKULAR IQTISODIYOTNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI

Sodikov Zokir Rustamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrası dotsenti

orcid 0000-0002-0195-4573.

O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: Sirkulyar iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning barqaror yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarida resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni minimallashtirish hamda materiallar aylanishini ta'minlashni nazarda tutadi. Ushbu konsepsiya an'anaviy "chiziqli iqtisodiyot" modelidan tubdan farq qiladi. Chunki chiziqli tizimda resurslar "olish–ishlatish–tashlash" asosida sarflansa, sirkulyar iqtisodiyotda "qayta ishlash–qayta foydalanish–qayta tiklash" tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu model ekologik barqarorlikni mustahkamlash, resurs taqchilligi xavfini kamaytirish, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi biznes imkoniyatlarini yaratishda muhim o'rin tutadi. Demak, sirkulyar iqtisodiyot nafaqat ekologik xavfsizlikni, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy farovonlikni ham ta'minlovchi zamonaviy mexanizm sifatida dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'z: Sirkulyar iqtisodiyot, Chiziqli iqtisodiyot, Barqaror rivojlanish, Resurslardan samarali foydalanish, Chiqindilarni kamaytirish, Qayta ishlash, Qayta foydalanish, Qayta tiklash (regeneratsiya), Ekologik xavfsizlik, Yashil iqtisodiyot, Innovatsion texnologiyalar, Ijtimoiy farovonlik.

THE NECESSITY AND IMPORTANCE OF THE CIRCULAR ECONOMY

Sodikov Zokir Rustamovich, PhD

Uzbekistan International Academy of Islamic Studies

Associate Professor of the Department of Islamic Economics and

Finance, pilgrimage tourism

Republic of Uzbekistan

Abstract: The circular economy is one of the most significant directions of modern sustainable economic development. It aims at the rational use of resources, minimization of waste, and ensuring the closed-loop circulation of materials within production and consumption systems. Unlike the traditional linear economy model, which follows the “take–make–dispose” pattern, the circular economy emphasizes the principles of “reuse–recycle–regenerate.” This paradigm shift plays a crucial role in strengthening ecological sustainability, reducing the risks of resource scarcity, promoting the transition towards a green economy, and fostering new business opportunities. Therefore, the circular economy should be considered not only as an ecological necessity but also as a key mechanism for enhancing economic efficiency and ensuring long-term social well-being, which underlines its strong scientific and practical relevance.

Keyword: Circular economy, Linear economy, Sustainable development, Efficient use of resources, Waste reduction, Recycling, Reuse, Regeneration, Environmental safety, Green economy, Innovative technologies, Social well-being.

НЕОБХОДИМОСТЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ

Соди́ков Зоки́р Ру́стамович,

Кандидат экономических наук

Международная академия исламских исследований Узбекистана

Доцент кафедры исламской экономики и финансов,

паломнический туризм Республика Узбекистан

Аннотация: Циркулярная экономика является одним из наиболее актуальных направлений современного устойчивого развития. Её концепция предполагает рациональное использование ресурсов, минимизацию отходов и обеспечение замкнутого цикла обращения материалов в системах производства и потребления. В отличие от традиционной линейной модели экономики, основанной на схеме «взять–использовать–выбросить», циркулярная экономика строится на принципах «повторного использования–переработки–восстановления». Такой подход играет ключевую роль в укреплении экологической устойчивости, снижении рисков ресурсного дефицита, развитии зелёной экономики и создании новых бизнес-возможностей. Следовательно, циркулярная экономика рассматривается не только как экологическая необходимость, но и как важнейший механизм повышения экономической эффективности и обеспечения социального благополучия, что подчёркивает её высокую научную и практическую значимость.

Ключевое слово: Циркулярная экономика, Линейная экономика, Устойчивое развитие, Рациональное использование ресурсов, Сокращение отходов, Переработка, Повторное использование, Восстановление (регенерация), Экологическая безопасность, Зелёная экономика, Инновационные технологии, Социальное благополучие.

Kirish. Sirkulyar iqtisodiyot bugungi kunda global iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida dolzarblik kasb etmoqda. An’anaviy chiziqli iqtisodiyot modeli – “olish–ishlatish–tashlash” tamoyiliga asoslangan bo‘lib, u tabiiy resurslarning tezkor tugab borishi, chiqindilar hajmining ortishi va ekologik muammolarning chuqurlashuviga olib kelmoqda. Aksincha, sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasi resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni minimallashtirish, qayta ishlash va materiallar aylanishini ta’minlash orqali barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Sirkulyar iqtisodiyotning zaruriyati nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki iqtisodiy samaradorlik, yangi innovatsion yechimlar va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlash bilan ham izohlanadi. Shu bois mazkur mavzuning ilmiy jihatdan o‘rganilishi O‘zbekiston iqtisodiyotining yashil transformatsiyasi, resurslardan samarali foydalanish siyosati hamda xalqaro tajriba asosida yangi iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Metodlar: Mavzuni o‘rganish jarayonida ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv yondashuv, sistemali yondashuv kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

Tadqiqot davomida sirkulyar iqtisodiyotning dolzarbligi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati chuqur tahlil qilinib, quyidagi natijalar aniqlandi:

Resurslardan samarali foydalanish bu sirkulyar iqtisodiyot an’anaviy chiziqli modelga nisbatan resurslarni 30–40% tejamkor ishlatish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, tabiiy boyliklari cheklangan davlatlar uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Qayta ishlash, qayta foydalanish va regeneratsiya mexanizmlari chiqindilar hajmini keskin kamaytiradi va bu esa ekologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy samaradorlik bu sirkulyar iqtisodiyot innovatsion texnologiyalar va yashil investitsiyalarni rag‘batlantirishi orqali yangi biznes modellarini yuzaga keltirish bilan yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur‘atlari barqaror bo‘ladi.

Ijtimoiy ta'siri bu yangi ish o'rinlari yaratilishi, aholining ekologik madaniyatini oshirish va yashash sifati yaxshilanishida yuzaga chiqadi.

Xalqaro tajriba bo'yicha rivojlangan mamlakatlarda sirkulyar iqtisodiyot siyosati barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, O'zbekistonda ham bu tajribani bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Munozaralar: Zamonaviy global iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari insoniyat oldiga tubdan yangi talablarni qo'yimoqda. XXI asr sharoitida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda an'anaviy chiziqli model tobora ko'proq tanqidlarga uchramoqda va cheklovlarga duch kelmoqda. Buning sababi – tabiiy resurslarning taqchilligi, ekotizimlarning degradatsiyasi bo'lishi, iqlim o'zgarishi va aholi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi natijasida xomashyolarga va tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojning keskin ko'payishi hisoblanadi.

Shu bois barqaror rivojlanishni ta'minlovchi yangi paradigma – sirkulyar (aylanma) iqtisodiyot konsepsiyasi – global jamiyat kun tartibining markaziy nuqtasidan joy olmoqda. Barqaror rivojlanish tushunchasi o'z mazmunida iqtisodiy o'sish va farovonlik bilan bir qatorda ekologik xavfsizlikni ta'minlashni, jamiyatning ijtimoiy farovonligini oshirishni va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ham mujassam qiladi. Aynan shu jihatdan, iqtisodiy taraqqiyotning yangi yo'nalishlari sifatida yashil iqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot modellari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun, ya'ni iqtisodiy taraqqiyot, ekologik xavfsizlik va aholi turmush darajasini yaxshilashni ko'zda tutuvchi taraqqiyot borasida globallashtiruv muntazam avj olib borayotgan davrda o'zgacha rivojlanish paradigmasi zarur bo'lmoqda. Shu bois bugungi kunda dunyoda an'anaviy iqtisodiy model qayta ko'rib chiqilmoqda va tobora kengroq rezonans qozonayotgan yangi paradigmaga – sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasiga asoslangan rivojlanishga e'tibor muntazam ortib bormoqda. Chunki bu iqtisodiyotning bosh vazifasi – mahsulot yoki xizmatning hayotiy siklidagi har bir

bosqich va jarayon samaradorligini maksimal darajaga yetkazish qaratilgan. Shu bois uning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – chiqindilarni qayta ishlatishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Ko‘plab mamlakatlarda hozirgi iqtisodiy model “ol – ishlab chiqar – tashlab yubor” tamoyiliga asoslangan chiziqli iqtisodiyot shaklida faoliyat olib boradi. Shu sababli an‘anaviy model qayta talqin qilinmoqda va ko‘proq e‘tibor “ol – ishlab chiqar – qayta foydalan” tamoyiliga asoslangan sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasiga qaratilmoqda.

Zero, sirkulyar iqtisodiyotning asosiy jihatlaridan biri bo‘lgan yashil iqtisodiyot konsepsiyasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan 2009-yilda “green growth” siyosati sifatida qabul qilingan bo‘lib, uning asosiy maqsadi 2030 va 2050-yilgacha bo‘lgan davrda iqtisodiy o‘sishni jarayonini ekologik cheklovlar bilan uyg‘unlashtirishdan iborat hisoblanadi.

Sirkulyar iqtisodiyotning asosiy afzalligi shundaki, u nafaqat tabiiy muhitni asrab qolishga, balki xomashyo va tabiiy resurslar iste‘mol hajmini oshirmasdan iqtisodiy o‘sishga erishish uchun imkoniyat yaratib beradi. Chunki, bugungi kunda jahon miqyosida amaliy xarakterga ega bo‘lgan “Chiziqli iqtisodiyot modeli (Linear economic model)” bu “ol – ishlab chiqar – tashlab yubor” tamoyiliga asoslangan bo‘lsa, “Sirkulyar iqtisodiyot modeli (circular economy model)”da “ol – ishlab chiqar – qayta foydalan” tamoyilini o‘rtaga tashlaydi. Buning natijasi o‘laroq ishlab chiqarish va iste‘mol zanjirida chiqindilarni minimal darajaga tushirish va ularni imkon qadar to‘liq qayta ishlash hamda mavjud salohiyatdan samarali foydalanishga sharoit yaratiladi.

Aksariyat tadqiqotchilar va mutaxassislarning fikr-mulohazalariga ko‘ra, yopiq siklli iqtisodiyot modeli iqtisodiyot va tabiat o‘rtasidagi integratsiyani ta‘minlovchi eng maqbul yondashuv tarzi yoki uyg‘unlikni topish yo‘li hisoblanadi. Chunki ko‘p asrlar davomida iqtisodiy faoliyati ko‘pincha tabiat bilan ziddiyatli va qarama-qarshi bo‘lib kelganligi kuzatiladi. Qolaversa, bu ziddiyatda tomonlardan birini ustun qo‘yish ikkinchisining manfaatlariga zarar yetkazmasdan iloji yo‘q. Shu bois, tomonlar o‘rtasida maqbul munosabatni va muvozanatni

ta'minlash, qaysidir tomonning qo'pol ravishda mutlaq hukmronligiga yo'l qo'ymaslik eng ustuvor vazifa sifatida o'rta chiqmoqda. Aynan bunday yondashuv va harakatlar barcha tomonning manfaatiga xizmat qilishi hamda ratsional faoliyat bo'lishi amalda tasdiqlanmoqda. Shuning uchun bugungi kunda global miqyosda mavjud muammolarni hal qilish uchun iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishlariga o'tish dolzarb va zaruriyatga aylangan.

Zero, sirkulyar iqtisodiyotning amalda joriy etilishi mamlakatlarda ekologik muvozanatni tiklashga, resurslardan samarali foydalanishga, yangi ish o'rinlarini va ishlab chiqarish tizimlarini yaratishga, ijtimoiy tabaqalashuvni kamaytirishga va turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa ko'plab rivojlangan mamlakatlar sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasini faol ravishda tatbiq etmoqda va tashviqot qilmoqda. Xususan, Yevropa Komissiyasi 2015-yilda "Circular Economy Action Plan" (Sirkulyar iqtisodiyot harakatlar rejasi) ni qabul qildi va uni 2020-yilda yangiladi. Mazkur hujjatga ko'ra, Yevropa Ittifoqi 2050-yilgacha iqlim neytralligiga erishishni va resurslardan foydalanishda yopiq sikl modeliga o'tishni ustuvor maqsad sifatida belgilagan. Ayni paytda, BMT, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi yirik xalqaro muassasalar ham sirkulyar iqtisodiyotning afzalliklariga va yutuqlariga urg'u berib kelmoqda.

Global jamiyatda sirkulyar iqtisodiyot nafaqat Yevropa yoki umuman taraqqiy etgan mamlakatlarda, balki butun dunyo bo'ylab keng ko'lamli tadqiqot qilinadigan va o'rganiladigan masalaga aylangan. Chunki, tadqiqotchi mutaxassislar va amaliyotchilar uni jamiyat rivojlanishi uchun potentsial strategiya sifatida ko'rmoqda. Chunki, mamlakatda aholi farovonligini oshirishi bilan bir qatorda mustaqil davlatlarning xomashyo va energiyaga resurslariga tobeligini umuman bartaraf qilishi yoki hech bo'lmaganda kamaytirishi mumkin. Ko'plab biznesmenlar va tadbirkorlar sirkulyar iqtisodiyotni iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va foydani ko'paytirish omili sifatida ko'radilar.

Bundan tashqari, ko'plab milliy hukumatlar sirkulyar iqtisodiyot modeliga o'tishning jozibadorligini, uning yangi ish o'rinlari yaratishga va resurs sarfini qisqartirishga ta'sirini, iqtisodiy o'sishdagi va atrof-muhitni muhofaza qilishdagi ijobiy rolini, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishdagi va raqobatbardoshlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini inobatga olmoqda. Chunki, jahon jamoatchiligi uuchun sirkulyar iqtisodiyot tabiatning ifloslanishini oldini olishga, biologik xilma-xillikning kamayishiga yo'l qo'ymaslikka, iqlim o'zgarishi muammosini bartaraf qilishga va o'sib borayotgan tengsizliklarga qarshi kurashda asosiy vosita bo'lishi mumkin. Biroq bunday muvaffaqiyatga erishish uchun bugungi kunda tabiat bilan iqtisodiyot o'rtasidagi barcha mavjud muammolarning ildiz sabablarini ko'rib chiqish zarur hisoblanadi. Chunki, har qanday mahalliy miqyosdagi faoliyat ham global o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli hukumatlarning, jamiyatlar, kompaniyalar va shaxslar darajasidagi hamkorlikka ehtiyoj mavjud bo'lib, bu sirkulyar iqtisodiyotni joriy etish hamda rivojlantirish uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi va mutlaq ustuvor vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish bo'yicha muhim qadamlar tashlanmoqda. Xususan, 2019-yilda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" qabul qilindi, unda 2030-yilgacha bo'lgan asosiy yo'nalishlar belgilab berildi. "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"ning 2-bobi birinchi bandida "Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga, issiqxona gazlarining ajratmalari darajasini pasaytirishga, iqlim va ekologiya barqarorligiga imkon beruvchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat" deb¹ belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son) qaroriga 1-ilovasining 2-bob. "Yashil" o'sishning ustuvor

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son) qaroriga 1-ILOVA

yoʻnalishlarining 2.4. Innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish bandida ustuvor vazifalar sifatida “butunjahon qiymat zanjirlarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish va ragʻbatlantirish uchun siyosiy hamda institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish” hamda ““yashil” iqtisodiyotga oʻtish uchun innovatsion siyosat va milliy innovatsion tizimlarni takomillashtirish” koʻzda² tutilgan. Mazkur hujjatlar asosida mamlakatimizda sirkulyar iqtisodiyot tizimini rivojlantirish va “yashil” iqtisodiyotga oʻtish, xususan, chiqindilarni qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish, ekologik toza transport vositalarini joriy qilish kabi yoʻnalishlarda sezilarli oʻzgarishlar amalga oshirilmoqda.

Sirkulyar iqtisodiyotning zaruriyati global ekologik muammolarni hal qilish va resurslarni tejashda yotadi. U chiziqli iqtisodiyotdan farqli oʻlaroq, chiqindilarni resursga aylantirib, atrof-muhitni muhofaza qiladi va iqtisodiy oʻsishni taʼminlaydi. Zero, sirkulyar iqtisodiyot biznes, jamiyat va atrof-muhit uchun manfaatli boʻlib, u yangi bozorlar ochilishiga, chiqindilar emissiyasi kamayishiga va barqarorlikni ragʻbatlanishiga xizmat qiladi. Faqat sirkulyar iqtisodiyotni samarali amalga oshirish uchun innovatsiyalar, yashil moliya va siyosiy qoʻllab-quvvatlov talab etiladi. Chunki, barqaror jamiyatga oʻtish uchun qoʻshimcha harakatlar zaruriy hisoblanadi. Shuning uchun sirkulyar iqtisodiyot kelajakdagi iqtisodiy model sifatida muhim ahamiyatga ega va uni joriy etish bu boradagi global muammolarni hal qilishda ustuvor yoʻnalish hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun sirkulyar iqtisodiyot modeli nafaqat dolzarb, balki muqarrar boʻlgan ustuvor yoʻnalish hisoblanadi. U iqtisodiy oʻsish va tabiat oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlashga qaratilgan boʻlib, davlatlar, biznes sektori, jamiyat va har bir shaxsning hamkorligini talab etadi. Shu jihatdan, ushbu sirkulyar iqtisodiyotning nazariy asoslarini, xalqaro tajribani va

²z'bekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi (2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son) qaroriga 1-ILOVA

milliy iqtisodiyotdagi amaliy jihatlarni chuqur tahlil qilish hamda ilmiy to'xtamlarga kelish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosalar. Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, sirkulyar iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal etishda, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurs sarfini kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ular quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga olib keladi:

Milliy xo'jalikda sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasini joriy etish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni minimallashtirishning eng samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

- Bu model iqtisodiyotning yashil transformatsiyasini tezlashtiradi, innovatsion biznes imkoniyatlarini kengaytiradi va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

- O'zbekiston sharoitida sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish va amalga oshirish ekologik xavfsizlikni, iqtisodiy raqobatbardoshlikni va aholining farovonligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

- Ayni paytda, tadqiqot natijalari sirkulyar iqtisodiyotni milliy rivojlanish strategiyalariga chuqur integratsiya qilish va uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan va tavsiy etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son) qaroriga 1-ILOVA.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son) qaroriga 1-ILOVA

4. Circular ecology (2019). Life Cycle Assessment. Available: <http://www.circularecology.com>
5. Circular economy practitioner guide. (2018). Strategies and examples. Available: <https://www.ceguide.org/Strategies-and-examples>
6. Ecopreneur.eu (2019). Circular Economy Update: Overview of Circular Economy in Europe. Available: <https://ecopreneur.eu/wpcontent/uploads/>
7. Material Economics (2018). The Circular Economy: A Powerful Force for Climate Mitigation. Transformative innovation for prosperous and low-carbon industry. Available: <https://media.sitra.fi/2018/06/12132041/>
8. OECD (2018). OECD Global Material Resources Outlook to 2060. Available: <https://www.oecd.org>
9. Sariatli, F. (2017). Linear economy versus circular economy: a comparative and analyzer study for optimization of economy for sustainability. Visegrad Journal on Bioeconomy and Sustainable Development, 6(1), 31–34.
10. UNIDO [United Nations Industrial Development Organization] (2017). Circular Economy. Available: [https://www.unido.org/sites/default/files/2017-07/Circular Economy UNIDO_0](https://www.unido.org/sites/default/files/2017-07/Circular%20Economy%20UNIDO_0).